

INKLYUZIV TA`LIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Malika Roziqova

Namangan davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Xasanova Moxistarabonu

Namangan davlat pedagogika insitituti Pedagogika fakulteti

Maxsus Pedagogika yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim, uning mazmun mohiyati, inklyuziv ta'limning alohida ta'lim ehtiyoji mavjud bolalarga ijobiy ta'siri, imkoniyatlari haqida nazariy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv, integratsiya, imkoniyati cheklangan, insonparvarlik, alohida ta'lim ehtiyoji mavjud bolalar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kundan boshlab mamlakatimizda yosh avlodning sog'lig'i, ta'lim hamda tarbiyasi masalalariga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda. Ushbu ishlarning amaliy yechimi ko'p jihatdan bevosita uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'ini bo'lgan maktab bilan bog'liq. Ta'limimiz diqqat markazida erkin, ongli, o'z va dunyo mamlakatlari milliy va madaniy qadriyatlariga hurmatda bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash turadi.

Ushbu maqsadda olib borilayotgan islohotlar uzluksiz ta'limning ajralmas qismi bo'lgan maxsus ta'lim tizimini ham bevosita qamrab oladi. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning birlamchi va uning oqibatida yuzaga keluvchi ikkilamchi muammolari ular uchun tashkil qilinuvchi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuniga o'zgacha yondashish lozimligini talab qiladi.

Istiqlol davriga qadar nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasi yopiq mavzu hisoblanib, ular asosan "o'qitiladigan" va «o'qitilmaydigan»lar toifasiga tabaqalashtirilar edi.

Hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimiga "anomal", "nuqsonli", "aqli zaif", "nogiron", "imkoniyati cheklangan" kabi atamalar o'rniga "alohida e'tiborga muhtoj", "aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan", "rivojlanishida chetga chiqishlari mavjud" atamalari kirib keldi. Bu hol bunday bolalarning rehabilitatsiya, korreksiya, ijtimoiy hayotga moslashuvlari va integratsiyalashuv (uyg'unlashuv)lari masalalariga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishiga olib keldi. Asta-sekinlik bilan dunyoga yuz tutgan ta'lim tizimida ham yangi yo'nalish ishlari boshlab yuborildi. Maxsus ta'lim tizimiga muqobil bo'lgan yangi yo'nalish maktablari – inklyuziv maktablari shakllana boshladi. Mamlakatimizda dastlab inklyuziv ta'lim haqidagi tadqiqotlar 1996 yildan e'tiboran kirib kelgan va 2000 yildan e'tiboran xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda turli loyihalar asosida tashkil etib kelinayotgan inklyuziv ta'lim muassasalari dastlab

muvaffaqiyatlarga erishishiga qaramay, mazkur qo'llab-quvvatlashlar yakunlangach, maktablarda qator deqsinishlar, qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Shu sababli ham inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy va nazariy asoslarini puxta o'rganish va u orqali inklyuziv ta'limning samarali tizimiga o'tish ta'lim tizimida dolzarb masala sanaladi.

Inklyuziv ta'lim - *fr* *Inclusif* – qamrab olaman, *lot.* *Include* - kiritaman, qo'shaman degan ma'nolarni anglatadi. Umuman olganda inklyuziv ta'lim jismoniy va intellektual, ijtimoiy, hissiy va lingvistik kelib chiqishidan, shuningdek, irqidan, rangidan qat'iy nazar, har bir shaxsga o'zining uyiga yaqin hududdagi umumta'lim muassasalarida o'qish imkoniyati beriladigan ta'lim shaklidir.

Hozirgi kunda jahon miqyosida keng targ'ibot qilinayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi yani bu - o'sishi va rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish, qolaversa tarbiyalash masalasi yurtimizda ham dolzarb muammo sirasiga kiradi. Inklyuziv atamasi inglis tilidagi ma'nosi esa "inclusive", "inclusion", - *uyg'unlashtirish*, *qamrab* olish degan ma'nolarni anglatadi. Yurtimizda inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yilishidan maqsad:imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek o'zini his etishi, hurmatga sazovor bo'lishga haqli albatta. Shuning uchun ham uni nuqsoni tufayli chetga chiqarish xatolikdir. Imkoniyati cheklangan bolalar ham boshqa bolalar singari topshiriq va ularga yuklatilgan vazifalarni to'la to'kis amalga oshirmasalar ham ammo ular o'z imkoniyatidan o'z ilmi va salohiyatidan kelib chiqqan holda bajaradilar. Har bir bolalarning huquqlarini himoya qilish va ularga ijobiy munosabatda bo'lish tarbiyalashning eng muhim usulidir. Inklyuziv ta'lim orqali nafaqat alohida ta'lim ehtiyoji mavjud bolalarning ijtimoiylashivi, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilib qolmasdan, balki sog'lom bolalarni ham insonparvarlik, mehr-oqibat kabi xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limning alohida ta'lim ehtiyoji mavjud bolalarga quyidagi ijobiy jihatlari mavjud:

1. Inklyuziv ta'lim -qashshoqlik iskanjasidan bartaraf bo'lishga imkon beradi.
2. Inklyuziv ta'lim- barcha ta'limlar sifatini yaxshilaydi.
3. Kamsitish va taxqirlashlarni oldini oladi.

Maxsus yordamga muxtoj bolalarni asosiy muammolarini hal qilish maqsadida, o'zlari yashab turgan muhitdan, o'z oilasidan yani ota- onasidan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan bu muammolarni hal qilish samara bermaydi. Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni bo'yniga olmas ekan, ular uchun cheklab qo'yilgan huquq va imkoniyatlari ham qaytarib berilmas ekan, ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi va bu natijaga erishish ham anchagina qiyinchiliklar tug'diradi.

Respublikamizda 2020-yil sentyabr oyidan boshlab yangi taxrirdagi "Ta'lim to'g'risidagi"qonun tomonidan tasdiqlandi. Tasdiqdan oldin esa, O'zbekiston Respublikasi nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining

inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlili o'tkazildi. Bu qonunning 20-moddasida jismoniy va aqliy sensor va ruxiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Ushbu qonunda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish maqsadida 2020-yil 13-oktyabrda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risidagi" 638-sonli qarorlari ishlab chiqildi.

Xususan bundan tashqari inklyuziv ta'limni istiqbolli rejalari ham ishlab chiqilgan:

•Tanlab olingan mintaqalarda inklyuziv ta'lim usullarini tajriba sifatida joriy etilishi uchun xalq ta'limi vazirligiga texnik yordam ko'rsatish.

•Maktabga qatnamaydigan yoki shunday xatarga uchrayotgan bolalarga alohida etibor qaratadigan viloyat bolalar rivojlanish markazlarida tegishli o'quv dasturlarini joriy etish.

Hozirda Namangan viloyati Namangan shahrida joylashgan 11-umumiy o'rta ta'lim maktabida ham inklyuziv ta'lim samarali yo'lga qo'yilgan. Ushbu maktabida nafaqat inklyuziv talim balki ta'limni barcha yo'nalishlariga etibor qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi qonuni. 2020-yil 23-sentyabr. O'RQ-637-son.
2. Muzaffarova X.N. Inklyuziv ta'limning muammolari va istiqbollari// Xalq ta'limi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali 2014 yil 3 son.
3. Shoumarov G'., R.Shomahmudova, L.Mo'minova, H.Kalbaeva va boshqalar "O'zbekiston Respublikasida Inklyuziv ta'lim kontsepsiyasi" Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fondi, T., 2009.
4. Ayupova M.Y. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. —560 b
5. Munira, V., & Shoxistaxon, T. (2024). BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHIDA ATROF MUHIT VA OILANING AHAMIYATI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(1), 59-61.
6. Munira, V., & Sodiqjonovna, M. X. (2024). BOLALARDA YUVINEL REVMATOID ARTRIT KASALLIGINING KELIB CHIQISHI HAMDA UNING OLDINI OLIISH CHORALARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(1), 33-35.
7. Roziqova, M. (2023). Baynalminal oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *Interpretation and researches*, 1(1).
8. Дилмуродова, З. (2023). Развитие способностей детей младшего школьного возраста. *Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании*, 1(1), 487-493.